



## DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA AYOLLARNING O'RNI VA MAVQEYI.

**Xasanova Dilobarxon Abdumannob qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti*

*Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi*

*21,119-guruh 2-bosqich talabasi*

**Anotatsiya;** Ayol,naqadar ulug',oliyjanob so'zdir.Ayolni e'zozlash,unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos xususiyatlardan biridir.Shu bilan bir qatorda jamiyaning o'rniда ayollarning o'rni katta ekanligi,jamiyatning siyosiy-ma'naviy muhit va taraqqiyoti ayollarga,oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq.Ushbu maqolada ayollarning jamiyatda o'rni va boshqaruvi haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar;** Ayol. jamiyat. boshqaruv, oila. mustahkam, manfaat, ta'minlamoq. mustaqillik, davlat,Oliy Majlis,diagnostika,salohiyat,zamonaviy texnologiya

Darhaqiqat,mamlakatimiz Prezidenti ayollarning jamiyatdagi o'rni va roliga yuqori baho berib,ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish,xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis,malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish,birinchi navbatda,sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash,onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e'tiboridagi eng ustuvor vazifa ekanligiga alohida e'tibor qaratmoqda.Ma'lumki millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda,shibhasiz,oilaning,oilada esa ayolning o'rni va ta'siri beqiyosdir.Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari,ilk hayotiy tushuncha birinchi galda oila bag'rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi.Mamlakatimizda yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatdagi o'rni,ularning oilaga bo'lgan munosabatlari,ijtimoiy hayotdagi roli g'oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqeい har jihatdan yuqori baholanmoqda.Huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo'lidan dadil odimlab borayotgan mamlakatimizda xotin-qizlarning erkaklar bilan barcha sohalarda tengligini ta'minlashga,ularni ulug'lash va qadrlashga,qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq tizimi yaratildi.Istiqlol yillarida Konstitutsiyamiz hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi,Oila Kodeksi,Fuqarolik Kodeksi,'Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida'gi, 'Mehnat muhofazasi' kabi boshqa normative huquqiy hujjatlarda asosiy maqsad yurtimiz ayollarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga,opa-singillarimizning faolligini oshirishga ,ularga ma'naviy-ruhiy madad berishga,qolaversa,ularni turli tahdid va qotib qolgan eskicha qarashlardan himoya qilishga qaratildi.Shuni alohida ta'kidlash kerakki,xotin-qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan barcha qonun hujjatlari xalqaro huquqiy me'yorlarga asoslanadi.O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib ayollar huquqini xalqaro me'yor va huquqiy standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida 'Ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi', 'Ayollarning siyosiy huquqlari

haqidagi,onalikni muhofaza qilish haqidagi xalqaro konvensiyalarga' qo'shildi.Jamiyatda ayollarning salohiyatini yuzaga chiqarish,ularning barkamol avlodni tarbiyalashdagi rolini kuchaytirish va amalga oshirilayogan keng qamrovli islohatlarimizda yanada faol ishtirokini ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi.'O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida'gi qonunga asosan deputatlikka siyosiy partiyalardan ayollar nomzodini ko'rsatish bo'yicha 30 foizlikka kvota joriy etilgani yurtimiz xotin-qizlarning davlat qurilishidagi ishtirokini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar qoshida 'Ayollar qanoti' tashkil etildi.Mustaqillik yillarida hi,oya qilingan 1800 ga yaqin doktorlik dissertatsiyasining salkam 500 tasi,8500 ga yaqin nomzodlik dissertatsiyasi deyarli 3100 tasi ayollar tomonidan bajarilgani fikrimizning tasdig'idir.Ayollar salomatligi va ayol baxtining to'kisligi,avvalo oila mustahkamligini,taraqqiyotning asosiy omilidir.Shu bois ona va bola salomatligini ta'minlash,oilada sog'lom muhitni yaratish davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliшlari darajasiga ko'tarildi.Umuman,hech bir davlatda oila taqdiri,xotin-qizlar kelajagi hamda ularning jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamolligini ta'minlash masalasiga O'zbekistondagidek e'tibor qaratilmagan,desam mubolag'a bo'lmaydi.Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qillish,jumladan,poytaxtimiz va viloyatlarimizda zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan diagnostika,skrining va perinatal markazlari,yangi tug'ruq majmualari barpo etildi.Haqiqatda biror davlat bizning yurtimizda bo'lgani singari xotin-qizlarga e'tibor ko'rsatilmagan,e'zozlanmagan,mamalakat tayanchi sifatida e'tirof etilmagan.Mana shu ko'rsatilgan e'tibor yufayli ayollarimizning o'rtacha umr ko'rish yoshi 67 dan 73 yoshga qadar uzayganligini alohida qayd etish lozim.Bugungi kunda yurtimizda oilani mustahkamlash,yosh oilalar haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish,ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash,sog'lom va mustahkam oila barpo etish,xotin-qizlarni davlat va jamiyatni boshqarishda faol ishtiroki uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib,biz xitin-qizlar berilgan ana shunday shart-sharoitlardan unumli foydalanishimiz,mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohat va yangilanishlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishimiz,bizga bildirilayotgan ishonchni oqlashimiz,o'z mehr va sadoqatimizni oila,jamiyat,Vatan ravnaqi va barqarorligi,tinchligi va osoyishtaligi yo'lida namoyon etishimiz lozim.Zero,muhtaramYutboshimizning samimiyat bilan aytilgan; 'Oqila,go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rligi,mehribonligi,qalbi daryoligi bilan oiladagi qolaversa,butun jamiyatdagi muvozanatni,poklik,halollik,samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar',degan ishonchlarini oqlash biz ayollarning vazifamiz va burchimizdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Malika Qodirxonova O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi nutqidan.
- 2.'Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi' rasmiy veb-sayti



SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH  
International scientific online conference



3.Bahodir Xidirova ‘Ijtimoi hayot’ Toshkent-2010  
4.Oliy Majlis Senati raisi Tanzilla Norboyevaning ‘Tadbirkor ayol’nomli tadbir nutqidan